

Namangan viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar-may dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- iyun holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 5 190 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 15 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 175 tani tashkil qildi.


2026- yilning yanvar-may oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 12 609,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar-may oyiga nisbatan 120,9 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 958,4 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 98,7%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 9 067,3 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 119,0 %), uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 584,2 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 140,7 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- iyun holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 932 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 13 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 919 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2026- yilning yanvar-may oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 8 152,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 6,6 % ga o'sdi.


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 6 555,4 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 15,8 % ga to'g'ri keldi. Viloyatdagi jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 80,4 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar Uchqo'rg'on (183,8 %), Uychi (139,0 %) va Namangan sh (112,9 %).

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026- yil 1-iyun holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 325tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 9 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 316 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-may oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 9 954,5 mlrd so'mga yetdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan 113,3 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 81,5 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)





IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.